

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILAR DIQQAT BARQARORLIGINI O'RGANILISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Shovxiev Luqmoniddin Boynazar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining

Jizzax filiali Oila psixologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

Xolova Mohina Hayot qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining

Jizzax filiali Psixologiya fakulteti 2 kurs talabasi

Annatsiya: Ushbu maqolada diqqatning asosiy sifat va xususiyatlari, dars jarayonida o'quvchilar diqqatini jalb etishda samarali innovatsion usullardan foydalanish texnikasi va medotlari keltirib o'tilgan. Zamonaviy ta'limni rivojlantirishda diqqat barqarorligini shakllantirish atroflicha muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: diqqat barqarorligi, ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat, interfaol usullar, iroda kuchi, o'yin faoliyati, ijtimoiy burch, aqliy protses.

O'rganish (o'qitish) - bu o'qituvchining o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar berish, ularda yangi haqiqatni ochishga qodir bo'lgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashidir.

O'rganish - bu o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni, qabul qilishlari jarayoni, o'zlarida bilish qobiliyatlarini, fikrlash operatsiyalari va xarakatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Bu passiv mushoxada jarayoni emas, balki o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga beriladigan bilim va malakalarni faol ravishda qayta ishlash jarayonidir.

O'rganishning asosiy mohiyati shundaki, bunda-o'qish jarayonida o'quvchilar mustaqil ravishda bilim o'zlashtirish va bu bilimlardan foydalana olish ko'nikmasini o'z ichiga oluvchi aqliy va jismoniy mehnat elementlarini o'ziga singdiradi.

O'qish jarayoni-o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga ham, uning psixik rivojlanishining (aqliy, emotsional, irodaviy jihatdan) individual tavsifnomasiga, unda o'qishga nisbatan qaror topgan munosabatlariga, uning qiziqish-havaslariga bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim jarayoni o'quvchiga nimani va qanday qilib o'zlashtirishning oddiy bir xil natijasi emas, ya'ni sirdan ta'sir qiladigan shart-sharoitlarning oqibati emas, balki o'quvchining individual-psixologik xususiyatlariga bog'lik ravishda amalga oshiriladi.

Diqqat muammosi xorijiy psixologiya faniga nisbatan ancha murakkab, mustaqil, ilmiy manbalarga ega hisoblanadi va u shu bilan o'zaro farq qiladi. Lekin sobiq sho'ro psixologiyasida diqqatga nisbatan mukammal, qat'iy fikr vujudga kelgani yo'q, lekin uning atrofida juda ko'p tortishuvlar, munozaralar bo'lib o'tgan. Diqqatning psixologik

tabiati to'g'risidagi XX asrning 20-30 yillarda boshlangan ilmiy bahslar to hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Ilmiy munozaralarning zamirida asosiy fikr diqqatning bitta ob'yektga qaratilishidir. Bu ilmiy model ong ob'yektda tarzda ifodalanadi. Bu g'oya yirik psixolog P. P. Blonskiy tomonidan ilgari surilgan va asoslangan. Uning fikricha, odamning ongi bitta ob'yektga qaratilgandan keyin u atrofdagi narsa va hodisalarni ko'rmaydi. Ko'pchilik psixologlar P. P. Blonskiyning bu fikriga qo'shilmaydilar. Jumladan, atoqli psixolog S.L.Rubinshteyn mulohazasiga ko'ra, diqqat ongga ham, ob'yektning xususiyatlariga ham bog'liq emas. Buning ahamiyatli tomoni diqqatning ob'yektga yo'naltirilishidadir. Mazkur yo'naltirishning asosiy sabablari: shaxs, ehtiyoj, maqsad. Demak, diqqat odamning munosabati orqali ifodalanadi: Lekin bu o'rinda odamning diqqati shaxsning xususiyatiga aylanib qolmasmikin? Ikkinchi bir tomondan, odamni diqqatlarining xususiyatlariga qarab, ularni o'zaro bir-biridan farq qilish mumkin.

Psixologiya fanida diqqatni o'rganishning yana ikki xil nazariyasi mavjuddir. Birinchi nazariya negizida ongning bir nuqtaga yo'nalganligi yotadi. Ikkinchi nazariyaga binoan uning zamirida organizmning oriyentirovka faoliyati turadi. Ushbu gipotezalarni ilgari surgan psixologlar diqqatni yo'nalganligining ob'yektga bog'liqligini va unda jarayonni boshqarish imkoniyati mavjudligini tushuntirishga harakat qiladi. N.F.Dobrinin, A.N.Leontev, P.Ya.Gal'perinlarning fikricha, organizmning qidiruv harakatlari, oriyentirovka faoliyati ikki qismdan iboratdir.

1. Diqqat qaratilgan tashqi ifodaga ega bo'lgan ob'yektni sezish, idrok qilish. Shu yerda qarama-qarshilik vujudga keladi: chunki ob'yektning yo'qolishi bilan diqqat ham o'z funksiyasini tugatadi. A. N. Leontyev mulohazasiga ko'ra, bu oriyentir faoliyati emas, chunki ob'yektning paydo bo'lishi bilan diqqat ham namoyon bo'ladi, ob'yekt yo'q bo'lsa, demak, diqqat ham bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. P. Ya. Galperin esa ob'yektning paydo bo'lishi bilan diqqat yuzaga keladi. Ob'yekt yo'qolganidan keyin esa psixik qism bo'lgan tekshirish, nazorat qilish jarayoni boshlanadi. Demak, diqqat ongning bir ob'yektga yo'naltirilishi va ongli holatni nazorat qiluvchi jarayondan iboratdir, deydi.

O'quvchilarning diqqat jarayonlari tez o'sadi. Maktabdagi tarbiya ishlari sinfda olib boriladigan tashkilotlar uyushtiradigan o'ziga xos ishlar bolaning diqqatini shakllantiruvchi va tarbiyalovchi yangi sharoitdir. Sinfda o'quvchining aytganlariga quloq solishga o'zini qiziqtiradigan narsalargina emas, balki o'zini bevosita qiziqtirmaydigan narsalarga ham o'z diqqatini qaratishga o'rgatish lozim. U darsda ham uyda ham diqqatni talab qiladigan o'qish ishlarini mustaqil ravishda bajarish kerak. O'quvchilarda emotsionallik kuchli bo'lib, diqqatga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Agar o'qish materiali o'zining yorqinligi, obrazlilik va jonliligi bilan ajralib tursa, diqqat ham ancha kuchli namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilishning eng muhim sharti o'qitishni ko'rgazmali qilish, illiustralardan foydalanish hamda

o'qituvchi nutqining yorqin va obrazli bo'lishidir. Kichik yoshdagi o'quvchilar 7-8 yoshdagi 10-11 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib, ular o'quvchilari hisoblanadi. Bu yillarda bolaning hayot va faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Binobarin ularning psixikasida ham sezilarli darajada o'zgarishlar bo'ladi.

Bolaning maktabga kirishi uning hayotida burulish chog'idir. Bola maktabga kirib o'qiy boshlashi bilanoq uning hayotida asosiy o'qish bo'lib qoladi. O'quvchining vazifasi ijtimoiy burchidir. O'qituvchi bilan birinchi uchrashuvidanoq bolalar ko'p narsalarni eshitadi va maktabdagi o'qish haqida ko'p narsalarni bilib oladi va o'qishning nimaligini anglay boshlaydi. Maktabda bola sistemali ravishda yangiliklar oladi. Bu o'quvchining kundan-kunga ortib borayotgan, xilma-xil mazmundagi bilimlarning manbaidir. Bolaning bilimlari sistemali ravishda o'zlashtirib borish natijasida unda bilimning doirasi kengayib boradi. Maktabdagi ta'lim protsessining o'zi bolalarning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qo'yadi. Maktabdagi o'qish muayyan maqsadga qaratilgan ancha ixtiyoriy aqliy protsesslarni talab etadi.

O'quvchilarga dars paytida o'z diqqat e'tiborini uzoqdagi predmetlardan yaqindagi predmetlarga doimiy ravishda ko'chirib turishga to'g'ri keladi.

Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'n berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin, O'quvchilar psixik rivojlanishga ularning atrofidagi odamlar, otanasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabatga orqali erishish mumkin, 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o'rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyat ortadi. Bu munosabotlarida kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz holda sevimli mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari mumkin shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi.

O'quvchilar hayotida mehnat faoliyati unchalik muhim rol o'ynamaydi. Biroq ular bajaradigan mehnat topshiriqlari ixtiyoriy diqqatlarini birmuncha o'stiradi. Maktab yer uchastkasidagi ishlar, tabiatni o'rganish darslarida olib boriladigan kuzatishlar, uydagi ba'zi yumushlar, ijtimoiy foydali mehnat sohasida qilinadigan ba'zi boshlang'ich ishlar ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Mehnatning ortib va murakkablashib borishi bilan diqqatning roli orta boradi, binobarin, diqqatning barcha xususiyatlari o'sib boradi.

Quyidagi asosiy shartlar diqqatning o'sishida muhim ahamiyatga egadir: bola hamma vaqt, har qanday faoliyatda, har qanday ishni bajarayotganida xushyor bo'lishi, diqqat bilan ish olib borishi, har qanday sharoitda ham tashqi ta'sirlarga berilmay ishlay olishi lozim.

Diqqat qandaydir ayrim tadbir natijasida emas, balki maktab hamda oilada olib boriladigan o'quv va tarbiya ishining butun bir sistemasi asosida o'sadi.

Bola maktabga qadam qo'ygan dastlabki kunlardan boshlab o'qituvchi o'qituvchi ular diqqatini o'stira boradi.

Diqqatni tarbiyalamay turib o'quv ishini muvaffaqiyat bilan olib borib bo'lmaydi, binobarin o'qituvchi diqqatni tarbiyalash bilan boshlanadi.

Diqqat qila bilmaslik, qunt bilan ishlay olmaslik yomon ishlash sabablaridan biri hisoblanadi. Yomon ishlashning sababi esa o'qituvchining bolalarni diqqat bilan ish qilishga o'rgatmaganligidir.

O'quvchilar diqqatini tarbiyalashning asosiy sharti o'quv ishining turli-tuman qilib olib bora bilishidadir. O'qituvchi dars vaqtida o'quvchilarning hamisha diqqat bilan ishlashiga erishish uchun harakat qilmog'i lozim.

Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin jarayonida bola o'z harakatlarini o'yin talablariga muvofiqlashtirishni va ularni qoidalarga mos ravishda yo'naltirishni o'rganadi. Ko'pchilik jismlar va hodisalar bilan tanishib borish, oddiy munosabatlarni farqlash malakasining asta-sekin shakllanishi, ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlashish, ular bilan sayr qilish va o'yinlar o'ynash, boshqa jismlar va o'yinchoqlarni o'ynatish – bularning barchasi bolaning shaxsiy tajribasini boyitadi, shu bilan birga, uning qiziqishlari va diqqatini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy xususiyati ixtiyoriy diqqatining yetarlicha barqaror emasligidan iborat. Bola yot seskantiruvchilarga oson chalg'iydi, uning diqqati o'ta hissiyotlidir. Asta-sekin bolada mashqlar va iroda kuchi yordamida o'z diqqatini boshqara olish layoqati shakllanadi.1

Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, interfaol uslublarning soni juda ko'payib ketgan. Biz ularning ta'lim muassasalarida keng tarqalganlari, o'qitiladigan aniq fan va predmetlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi pedagogik texnologiyalarning foydalanish uslubiyatini keltiramiz. Yuqorida bayon qilingan dasturda keltirilgan o'quv mashg'ulotlari va tarbiya jarayonlarida qo'llaniladigan interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalardan tashqarilarini ham keltiramiz

Diqqat qila bilmaslik, qunt bilan ishlay olmaslik yomon ishlash sabablaridan biri hisoblanadi. Yomon ishlashning sababi esa o'qituvchining bolalarni diqqat bilan ish qilishga o'rgatmaganligidir.

O'quvchilar diqqatini tarbiyalashning asosiy sharti o'quv ishining turli-tuman qilib olib bora bilishidadir. O'qituvchi dars vaqtida o'quvchilarning hamisha diqqat bilan ishlashiga erishish uchun harakat qilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z FMJ., 2008.
2. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.
3. Rubinshteyn S.L ОСНОВЫ ОБЩЕЙ ПСИХОЛОГИИ - Spb: Piter, 2007

4. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Murotmusaev Komiljon Buriboyevich, Yuldashev Sheryigit Ergashovich. "PSCHOLOGY OF MODERN LEADERSHIP AS AN IMPORTANT PHENOMENON OF EFFECTIVE MANAGEMENT" **Intenational Journal of Early Childhood Special Education** ISSN:1308-5581 2022 yil
5. Shovxiyev L.(2021). Ursachen der Entstehung von psychischen Krisen. "**International Simposium of Young Scholars**" Xalqaro Amerika konferensiyasi. (514-516 betlar)
6. Shovxiyev, L., & Sharafitdinov, A. (2022). Psixologiyada tush korish tilsimlari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 485–488. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5204>
7. Shovxiyev, Luqmoniddin Balibekova, G., (2022). Muloqot insonlarga ta'sir otkazish vositasi sifatida. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 518–520. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5229>
8. Shovxiyev L. & Sharafitdinov, A.,(2022). Hissiy intellekt va uning shakllanishi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 437–440. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5161>
9. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, B, Usmonqulova.P.Sh Jamiyatda shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi (Ноучный Фокус jurnali. Rossiya hamda O'zbekiston hamkorligidagi ilmiy jurnal) 159-bet.
10. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Balibekova Gulshoda Saydulla qizi "Idrok shakllanishining yoshga doir xususiyatlari" WORLD OF SCIENCE jurnali. 380-bet.
11. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Muhammadiyev Abdumo'min Abduxoliq o'g'li Karl Gustav Yungning analitik psixologiyasida kollektiv ongsizlik tushunchasi. «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal.
12. Yuldasheva S. I.A. KARIMOV ASARLARIDA YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G'OYALARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.
13. Ergashevich, Y. S. (2022). Psychology of modern leadership as an important phenomenon of effective management". Intenational Journal of Early Childhood Special Education ISSN, 1308-5581.
14. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA'SIRINING HISSIY OMILLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

15. Sh.E.Yuldashev, R.U.Otamuratov, E.M.Safarova., Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi suicidal holatlar psixoprofilaktikasi va diagnostikasi., "Fan va ta'lim" T-2022., 4,231-bet.

16. R.U.Otamuratov., Kasbiy motivatsiyalarda qo'rquv va xavotirlanish psixokorreksiyasi, magistrlik dis., T-2022., 79-bet.

17. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Murotmusaev Komiljon Buriboyevich, Yuldashev Sheryigit Ergashovich. "PSCHOLOGY OF MODERN LEADERSHIP AS AN IMPORTANT PHENOMENON OF EFFECTIVE MANAGEMENT" **Intenational Journal of Early Childhood Special Education ISSN:1308-5581** 2022 yil

18. Shovxiyev L.(2021). Ursachen der Entstehung von psychischen Krisen. "**International Simposium of Young Scholars**" Xalqaro Amerika konferensiyasi. (514-516 betlar)

19. Shovxiyev, L., & Sharafitdinov, A. (2022). Psixologiyada tush korish tilsimlari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 485–488. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5204>

20. Shovxiyev, Luqmoniddin Balibekova, G., (2022). Muloqot insonlarga ta'sir otkazish vositasi sifatida. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 518–520. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5229>

21. Shovxiyev L. & Sharafitdinov, A.,(2022). Hissiy intellekt va uning shakllanishi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 437–440. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5161>

22. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, B, Usmonqulova.P.Sh Jamiyatda shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi (Нoучный Фокус журнаli. Rossiya hamda O'zbekiston hamkorligidagi ilmiy jurnal) 159-bet.

23. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Balibekova Gulshoda Saydulla qizi "Idrok shakllanishining yoshga doir xususiyatlari" WORLD OF SCIENCE журнаli. 380-bet.

24. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Muhammadiyev Abdumo'min Abduxoliq o'g'li Karl Gustav Yungning analitik psixologiyasida kollektiv ongsizlik tushunchasi. «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal.

25. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Gapparova Zokira "Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyani Rossiyada o'rganilishi" "TADQIQOTLAR" Respublika ilmiy-metodik журнаli.

26. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Ergashov Navruzbek
A.ADLERNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIYA BO'YICHA ISHLAR
"TADQIQOTLAR" Respublika ilmiy-metodik jurnali.

27. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Xolmo'minova Muxlisa Xudayor
qizi B.F Skinnerning hayoti va ijodi "TADQIQOTLAR" Respublika ilmiy-metodik
jurnali.

28. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Toshbekov Husniddin Orifjon o'g'li,
EDVARD TORNDAYKNING TA'LIM TAMOYILLARI, TA'LIM
NAZARIYASINING ASOSIY QONUNLARI VA XUSUSIYATLARI
«ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy
jurnal.

29. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Ernazarov Hamdam Beknazar o'g'li
G.YU.AYZENKNING HAYOTI VA IJODI «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И
ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal.

30. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Ubaydullayeva Yasmina Ulug'bek
qizi Irodaviy harakatlarning yosh xususiyatiga bog'liqligi «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА
И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal.

31. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Qo'chqorova Surayyo "KURT
LEVIN HAYOTI VA IJODI" «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ
ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal.

32. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Soriyeva Gulnoza Shuhrat qizi
"Muloqot va shaxslararo munosabatlar". «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И
ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal.

33. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Soriyeva Gulnoza Shuhrat qizi
"PSYCHOLOGY AND PERSONAL DEVELOPMENT" PEDAGOG jurali.

34. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Balibekova Gulshoda Saydulla qizi
"Shaxsda xavotirlanishning psixologik sabablari" «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И
ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal.

35. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Ergashova Dilafruz Ergash qizi,
"Ta'lim motivatsiyasi va uni shakllantirish jarayoni" "TADQIQOTLAR" Respublika
ilmiy-metodik jurnali.